

O'ZBEKISTON YOSHLARINING MA'NAVIY YUKSALISHIDA TARIXIY MUZEYLARNING O'RNI.

Usanova Xurshida Ishdavlatovna

Navoiy shahar kasb-hunar maktabi Katta o'qituvchisi (magistr, mustaqil izlanuvchi)

**"O'tmish – o'rghanish uchun,
Hozir – yashash uchun,
Kelajak – o'sish uchun kerak".**

Annotatsiya: Bugungi kunda O'zbekistonda muzeylar faoliyatini yaqindan o'rghanish, ularning mazmun va ma'no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, yoshlар orasida keng targ'ib etish, yoshlarning ma'naviy yuksalishida muzeylarning xilma-xil usullarini joriy qilish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Mavzuning dolzarbliги yana shundan iboratki, ijtimoiy - madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muzeylar faoliyatini umumiy tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir.

Kalit so'zlar: Muzeylar, tarix, ma'naviyat, inovatsiyalar, talim, o'quvchi – yoshlar, talabalar, turizm, texnologiyalar, istiqlol, internet.

Bugungi kunda respublikaning katta va kichik shaharlarida, tumanlarida xalqning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish qiluvchi 140 dan ziyod muzeylar ishlab turibdi. Jamiyatni ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazishda, keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli qilishda muzeylarning roli katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda keling ozgina muzeylar haqidagi ma'lumotlarga tuxtalib o'tsak. Demak, muzey so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, (mouveiov, muzion – "muzalarga bag'ishlangan joy") – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni toplash, saqlash, organish, va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan xozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi.[1] Bundan ko'rinish turibdiki, muzeylarimiz juda ham tarixiy, ma'naviy bilimga boy maskan hisoblanadi.

Xalqimiz o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga yetib olishdek ezgu mavsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, ahloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, ahloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma`naviy, ahloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, buyuk siymolar bo'lmish ota-bobolarimiz qoldirgan ma`naviy merosni ta`lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish jamiyatimizning ahloqan barkamol a`zolarini shakllanishida samarali vositadir. Bu o'rinda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Muzeylar faoliyatini tubdan

yaxshilash va takomillashtirish to‘g“risida”gi farmoni [2] 1998 yil 12 yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularni xalqning ma’naviy axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini yanada oshirish maqsadida “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tuzildi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamao boshqaruv xo‘jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta’limi tizimida ko‘plab muzeylar tashkil etilgan bo‘lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birgalikda o‘nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san‘at arboblarining uy muzeylari ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Biz bilamizki, 18 may sanasi “Xalqaro muzeylar kuni” hisoblanadi va keng nishonlanib kelinmoqda. Bugungi kunda muzeylar faqat madaniy qadriyatlar namoyishigina bo‘lib qolmasdan, bizni o‘tmish sayohatiga chorlovochi yo‘lchi yulduz hamdir desak adashmaymiz. O‘zbekiston muzeylari ko‘p yillik tarixga ega bo‘lib, tabiyki, ular yildan-yilga ma’nana boyib, muntazam kengayib bormoqda. “Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l – o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbanlari, quvonch va izardorlari bilan, xolis va xaqqoni o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi”[3] degan gaplar ham bejizga aytilmagan. O‘zbekistonda boshqaruv yillarida ko‘plab masalalar qatori, muzeylar rivojiga ham – milliy o‘zlikni anglashning muhim va ustuvor masalalaridan biri, deb qaralganligi tabiiy holdir. Muzeylarning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib borar ekan, istiqlolning ilk davrlaridayoq yosh davlatning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lgan hamda o‘z yechimini kutayotgan jiddiy muammolar, tezkorlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘pligiga qaramay, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov poytaxt markazida “Temuriylar tarixi davlat muzeyni tashkil etish to‘g“risida”gi farmonga imzo chekdilar. Muzey 1996 yil 18 oktyabrdan – buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan tantanali suratda ochiladi. 1997 yil Islom Karimov tashabbusi bilan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti qoshida muzeishunos mutaxassislarini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatda muzeishunoslikning fan sifatida rivojlanish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Shu tariqa buyuk o‘tmishga ega bo‘lgan, bugungi avlodlar u bilan tanishib, faxr-iftixon tuyg‘ularini uyg‘otadigan maskanlar faoliyati yangicha bir shitob bilan rivojlanishda davom etdi. Jumladan, Islom Karimovning 1999 yildagi farmoni bilan, Toshkentning Yunusobod tumanida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va Qatag‘on qurbanlari muzeysi barpo etildi. 2001 yilda Termiz arxeologiya muzeysi tashkil topdi.

Bugun mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda yurtning, ona zaminning har bir farzandi uchun vatan tarixini sevish, o‘rganishdan ham muqaddasroq burch bo‘lmasligi lozimdir deb hisoblayman. Shu o‘rinda Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 25-iyun kuni Toshkent shahrining Olmazor tumanida "G'alaba bog'i" barpo etish bo'yicha bergen topshiriqlariga asosan bog' konsepsiysi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, G'alaba bog'i – 2020-yil 9-may kuni, fashizm ustidan qozonilgan ikkinchi jaxon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan barpo etilgan. U o'z tarkibiga "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni jamlagan. Ushbu bog'dagi "Shon-sharaf" muzeyining ochilish marosimida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Bu yer xalq muzeyi bo'lishi kerak. Urushda qatnashgan yoki yetim bolalarni boqib olgan insonlarning avlodlari bilan bog'lanib, bobolarining jasoratini yuzaga chiqarish zarur. Hali o'rganilmagan juda ko'p manbalar bor. Yurtimizdagi har bir qishloq, mahalla, mакtab, umuman, jamoatchilik ularni to'plash va targ'ib etishda faollik ko'rsatishi kerak. Bu urush daxshatini anglash, tarixdan saboq chiqarish uchun muhim. Muzey bunda asos, tarix bilan bugungi kun o'rtaida ko'priq bo'lishi kerak", - degan fikrlarni ta'kidlab o'tganlar.[4] Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Xavfsizlik va barqaror tariqqiyot yo'lida" asarida ham bu haqida alohida takidlab o'tilgan bo'lib, quyidagicha fikrlar bildirib o'tilgan; - «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashga, yurakyurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmisht merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida eзgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlod, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi»[5]. Bundan ko'rinish turibdiki, mustaqil O'zbekiston jahondagi eng ilg'or mamlakatlar safidan o'rin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtida fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasbkori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yishi lozimdir. Mustaqillik O'zbekistonimizda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasiga katta e`tibor berilayotganligidan quvonamiz, fahrlanamiz. Bu esa, milliy g'ururdir, u insonni o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni tomgan qishloq yoki shahar, ota-bobolari, avlod va ajdodlarining maskanini ulug'lashda, yurtining o'tmishi, buguni, kelajagi bilan faxrlanishda, o'z aksini topadi. Shuning uchun ham, yangi jamiyat qurilayotgan bugungi sharoitda, Prezidentimiz aytganidek: "Vatan tuyg'usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdahohday muqaddas, sajdahohday pok va ulug' bo'lmog'i kerak..." Milliy g'urur – bu Vatanni sevish haqidagi balandparvoz gaplar, chaqiriqlar, shiorlar emas, balki el-yurtning porloq kelajagi uchun, xalq uchun, millat farovonligi yo'lida chinakamiga halol mehnat qilishdan iboratdir. Milliy g'ururning shakllanishida madaniy meroslarimiz benihoya kata rol o'ynaydi. Chunki, madaniy meros har bir millatning qadr-qimmati, inson aql-zakovatining mevasi, xalqning bir avloddan ikkinchi avlodiga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarining yig'indisidir. Xudi shuning uchun ham madaniy merosning boyib borishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning har tomonlama o'zlashtirilishi, jahon madaniyati qo'lga kiritgan yutuqlarni chuqur bilish va unga amal qilish katta ahamiyatga egadir. Madaniy merosimizni har tomonlama

o‘rganish jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimiz ongida milliy g‘uruning shakllanish jarayonini tezlashtiradi. Butun jahonni lol qoldirib, ming-minglab sayyoohlarning ko‘zini qamashtirib, hayratga solayotgan obidalar o‘z bag‘riga mashhur olimlar, fozillar, shoirlar, xattotlar, rassomlarni birlashtirgan, sayillar, ma'rakalarda esa fuqarolar kayfiyatini ko‘targan, ma'naviy quvvat bergan, yoshlarni esa odobu axloqqa, halolligu poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilishga chaqiradi. Shu kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan har tomonlama rivojlangan, ma'naviy yetuk komil inson tarbiyasi hamjamiyatimizning barcha jabhalarida o‘ziga xos tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi o‘z-o‘zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda ona yurtning har bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o‘rganish, diliqa jo etishdan ham muqaddasroq burch yo‘qdir. Shuning uchun ham o‘tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganish, muhofaza qilishning rolini oshirish muammolarini hal qilishga kata ahamiyat berib kelinmoqda. Shu o‘rinda mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida chuqur ilmiy ahamiyatga ega tarixiy mavzudagi qator masalalar qo‘yilgan, ularni to‘g‘ri talqin qilmay va hal qilinishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay millatimizning, xalqimizning kelajagi haqida gapirib bo‘lmaydi. Jumladan, tarix fanining dolzarb muammolari haqidagi maqolasida bu boradagi muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatib berdi: “Ma'naviyatni tiklash, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak”. Uzoq o‘tmish davrlarga borib taqaladigan tarixga boy, qadim madaniyatga ega bo‘lgan xalqimiz oldida o‘z o‘tmishini, kelib chiqishi, ota-bobolari, urfodatlari, ma'naviy boyliklarini, yuksak madaniyati, san'atini yanada chuqurroq o‘rganish, anglash va bevosita davom ettirishdek vazifa turganligini unutmasligi kerak. Birinchi Prezidentimiz “...tarix – xalq ma'naviyatining asosidir”[6], - deb ta‘kidlar ekan, mustaqil vatanning har bir fuqarosi, ayniqsa uning kelajagini belgilab beruvchi yoshlarimiz o‘z tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shartdir. Tarixiy xotirani shakllantirish, uni rivojlantirish, shu bilan birga hozirgi avlod ruhida milliy g‘urur tuyg‘ularini paydo qilish ishida barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida muzeylar ham o‘ziga yarasha hissasini qo‘shmoqda. Demak, darslik, qo‘llanma kitoblardan biz nazariy bilimlarni olar ekanmiz, amaliy ko‘rgazmalar, ashyoviy dalillar namoyish etilgan muzeylar bevosita ana shu nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan amaliy bilim va ko‘nikmalarni beradi. Shu bois yurtboshimizning “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” va “Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, o‘zlikni anglash mumkin emas” degan fikrlari juda qimmatlidir. Shuni aytish kerakki, tarixni tushunishda, yaqin o‘tmishda bo‘lganidek faqat ishlab chiqarish omillariga bog‘lab o‘rganmasdan, balki uni har tomonlama anglab, ayniqsa, ma'naviyatimizning asosiy manbai va negizi sifatida o‘rganishimiz zarur va shartdir. “Tarixiy xotira – har bir xalq, millat o‘zining zamon va makondagi o‘rnini, nasl-nasabini, o‘zligini anglashi, o‘zining haqiqiy tarixini, ma'naviyat va madaniyati jihatdan tutgan o‘rnini, uning rivojiga qo‘shgan hissasini, o‘zining milliy iftixorini, g‘ururini mustaqil va xolisona anglab olishidir”[7]. Albatta, agar xalq o‘zining

tarixiy xotirasiga, tarixiy ongiga ega bo'lsa, u muqarrar o'zi kechirgan tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq tushunadi va talqin qiladi desak adashmagan bo'lamiz.

Demak xulosa o'rnida shularni aytishimiz mumkinki, Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o`zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, yoshlarimizni demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda biz yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, muzeylarning ahamiyati ortib bormoqda. Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi o`ziga xos urf-odat va an`analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me`moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etishi, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muxim bo`lib hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo`lmanidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi", "Tarix xalq ma`naviyatining asosidir", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", "O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "Inson uchun tarixdan judo bo`lish-hayotdan judo bo`lish demakdir" – degan ahamiyatga molik so`zları muzeylar va muzey xodimlari uchun dasturamal bo`lib xizmat qilib kelmoqda[8]. Ajdodlarimizdan meros qolgan nodir-noyob eksponatlarni asrab – avaylashimiz, asrlar osha salobat to`kib bizgacha etib kelgan me`moriy obidalarimizni, arxeologik yodgorliklarimizni himoya qilishimiz, shuningdek, ikkinchi jahon urushi davri, azob-uqubatlari, xalqlarimizni matonatli jasoratlari bosib o`tgan hayot yo`llarini atroflicha o`rganishimiz hamda kelajak avlodlarga yetkazishdek muqaddas ishlarni amalga oshirish burchimizdir. Mustaqilligimiz sharofati tufayli mamlakatimizda insonni e`zozlash, milliy va ma`naviy qadriyatlarmizni tiklanishiga katta e`tibor qaratilmoqda. 2008 yil "Muzeylar to`g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu esa muzey xodimlari faoliyatini yanada rag'batlantirish bilan birga mas`uliyatini ham oshirdi. Muzey xodimlari faoliyati, muzeylarga oid bukletlar, kitoblar, suratlar ko`rgazmasi tashkil etilib kelinmoqda. Umuman axolini, o`quvchi yoshlarni tarbiyalashda muzeylarning roli beqiyosligiga amin bo`ldek. Chunki barcha eksponatlarda tarixiy jarayon, ajdodlar nafasi ufirib turibdi, ular qoldirgan ma`naviyat va boy merosni avaylab-asrash, avlodlarga yetkazish esa har birimizning konstitutsiyaviy burchimiz hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni taklif va tavsiya qilishim mumkinki, mustaqiligmizning ilk yillaridanoq milliy qadriyatlarmiz, o'tmishga boy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, hamda bu yo`nalishlarda muzeylar tashkil etishiga alohida etibor qaratilgan. Shu sababli ham bugungi kunda o'qituvchi – pedagoglarimiz o`quvchi – yoshlarni hamda talabalarimizni darsdan tashqari holatlarda o`z fanlariga, dars mavzulariga bog`lagan holda muzeylarga sayohatlarni tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylarda o`quvchi – yoshlar hamda talabalarimiz madaniy hordiq olish bilan birga, ajdodlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelayotgan milliy, ma`naviy, moddiy qadriyatlarmiz haqidagi bilim va ko`nikmalarga ega bo`lish bilan birga, tarixiy, buyuk ajdodlarning avlodi ekanliklaridan faxrlanish tuyg'ularini xis etishlariga

erishiladi. Bundan tashqari, bugungi kunda ko'plab tarixiy muzeylarimiz davlatimizning turli viloyatlarida joylashganligi hamda barcha yosh o'quvchi va talabalarimizning darslardan tashqari vaqtarda borib tanishishlariga imkoniyatlari yo'qligini inobatga olgan holda, yurtimizdagi barcha tarixiy muzeylar bilan maktablar, oliy ta'lif va professional ta'lif muassasalarida, ayniqsa chekka hududlardagi ta'lif maskanlari o'rtaida elektron muzeylarni tashkil etib, ularga sayohatlar uyushtirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Google.<https://uz.Wikipediya.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. 1998 yil 12 yanvar, Xalq so'zi, 1998 yil 13 yanvar
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T.: O'zbekiston. 1998. 15
4. Google.<https://daryo.uz> 2021/05/09.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror tariqqiyot yo'lida, -T.: O'zbekiston, 1998. -B.371.
6. Baxriddinov O. Muzeylar-tariximiz guvohi // Namangan haqiqati. 2004, 10 mart.
7. Kuryazova D. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San`at. 2010. –B. 17.
8. Karimov.I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo`li. -T.: O'zbekiston, 1992. -B.71.